

**AXLOQIY MUNOSABATLAR MA'NAVIY TARBIYANI
RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY MEZON**

Tolibova Saodat Xudoyberdi qizi

ShDPI magistranti

Tel: +9888 570 54 00

Annotatsiya: Maqolada yoshlar tarbiyasi. Yoshlarimiz milliy axloqsiz millat kelajagini tasavvur etish qiyin ma'sala ekanligi. Yoshlarni tarbiyalash, tarixning o'rnini eng muhim ko'rsatkich sifatida belgilangan. ekanligini ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan. Axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmasligi.

Kalit so'zlar: oila, komil inson, qadiryat, xulq-atvori, axloqiy tuyg'ular, axloqiy bilim.

Аннотация В статье семья священна. Создание семьи – очень ответственное дело. Он — воплощение национального будущего в святом семействе. Воспитание молодежи, доведение ее до зрелости, привитие знаний, обеспечение домашнего и семейного воспитания является важнейшим показателем формирования духовно-просветительских мероприятий научно выявлено и доказано.

Ключевые слова: семья, ребенок, мораль, поведение, нравственные чувства, нравственные знания.

Abstract: In the article, the family is sacred. Building a family is a very responsible thing. He is the incarnation of the national future in the holy family. Educating young people, bringing them to maturity, imparting knowledge, making them home and family education is the most important indicator in the formation of spiritual and educational events. scientifically revealed and proven.

Key words: family, child, morality, behavior, moral feelings, moral knowledge.

Barcha davrlarda insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy mezonlar asosida boshqarilgan. Sharq xalqlarida, asosan o'zbeklarda insoniy munosabatlar zaminida birinchi navbatda axloq yotadi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi. Axloq – ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishidir. Insondagi ilm, bilim, dunyoqarash, idrok, va imon uning xulqida o'ziga xos tarzda aks etib, ma'naviyati axloqiy fazilatlar sifatida ko'rinadi. Ma'naviyat – ko'rinmas, botiniy qudrat bo'lsa, axloq bevosita xar bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloq insof va adolat tuyg'usi, imon va halollik kabi ma'naviyatning tushunchalarini inson amaliy faoliyatida yuzaga chiqaruvchi hodisadir. Atoqli faylasuf Erkin Yusupovning ta'biricha: «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir»-degan fikri diqqatga sazovor¹.

Axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va masuliyati va boshqa axloqiy tushunchalar va normalarga muayyan munosabat shakllanadi. Ma'naviyat esa inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir – biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov ham o'z nutqlaridan birida ma'naviyatni shunday ifodalaydilar: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deydiganlar haq bo'lmasalar kerak. Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi.

¹ YUusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., Universitet, 1998, 38-b.

Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atning yutuqlari har bir oilaga etib borishi uchun, oilaning moddiy ta'minlanganligidan qat'i nazar, qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma'naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish ham katta ahamiyatga egadir».²

Axloqshunoslik fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga mana bu – fazilat, bu esa illat deb insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi. Ma'naviyat baho bermaydi, u imkoniyatlar haqida fikr beradi. Ma'naviyat fani insonga uning ichki imkoniyatini ko'rsatadi, insonga barcha fazilatlarni manbaini qidirishni, ularni qanday hosil qilishni o'rgatadi. Axloq inson hislatlarini boricha tahlil qiladi, ma'naviyat ularning hosil bo'lish asoslarini qidiradi. Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, axloq - odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va insonlarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish – turishida namoyon bo'ladi. Insonning xayot tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob - axloqi, xatti – harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari o'z oldiga olijanob vazifalarni qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy zaminni talab qiladi. Ma'naviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanib boradi. Inson ma'naviyati ming bir sifat, behisob jixat va qirralar bilan jilolanadi: hayo va andisha, vafo va sadoqat, o'ktamlilik va tashabbuskorlik, himmat va saxovat, jurat va shijoat, oriyat va xokisorlik, bosiqlik va hilm, farosat va zakovat....xullas, jami insoniy fazilatlar ma'naviyatning axloqiy asosidir. Axloqshunos olim, A.SHer axloqqa o'zgacha ta'rif beradi: “Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi. Odob - inson haqida yoqimli taassurot

² Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqolol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura.- T., O'zbekiston, 1996, 81-b.

uyg`otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo`lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroqli xatti-harakatlarni o`z ichiga oladi. Xulq - oila, jamoa, mahalla-kuy miqyosida ahamiyatli bo`lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta`sir ko`rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui. Axloq - jamiyat, zamon, ba`zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo`la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig`indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma`naviy hodisa”.³

Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o`zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. SHaxs faolityaiga axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma`naviy mezonlarga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti – harakatlar tahliliga ma`naviy asos bo`lgan iymon, vijdon esa inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko`proq shu ichki qonunga tayanib ish ko`radi.

Axloqning boshqa ijtimoiy – ma`naviy hodisalar bilan o`zaro aloqalari bo`lib, ulardan biri: Axloq va din. Mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. U inson ma`naviyati rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar, axloqlilikning mezonlari masalasiga dinda ham katta e`tibor berilgan. Shu bois diniy-shar`iy tamoyillar va me`yorlar, Hadisi sharifdagi o`g`itlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog`liq. Har qanday diniy ta`limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ob`ektiv, sub`ektiv ehtiyojlar, zaruriyatlar asosida kelib chiqadi. Qur`on, hadislar, shariat qoidalari, islom huquqi asoslarida oldinga surilgan barcha g`oyalar zaminida ruhiy poklanish, iymon, vijdon, e`tiqod bilan bog`liq bo`lgan dunyoviy muammolar o`rtaga qo`yilgan. Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o`zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, halol, e`tiqodli bo`lishi kerak degan g`oya islom dinining mazmunida katta o`rin olgan. Chunonchi, inson eng

³ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.; O`FMJ, 2010. B.6

oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Din o'zining ijtimoiy ta'siri va kuchi jixatidan har qanday mafkuradan ustun turadi. Dinga extiyoj ma'naviy kamolotga bo'lgan extiyojning bir ko'rinishidir. Dinsiz jamiyat ma'naviy jihatdan zaif va qashshoq bo'ladi. Din siyosat emas, balki ma'naviyat ekanini unutmashlik lozim. Dinni qurol qilib, o'z siyosiy maqsadlariga erishish yo'lida insonlarning hissiyotlaridan foydalanishga intilish nimalarga olib borganligiga o'zimiz guvoh bo'ldik. Din insonni axloqiylashtirishning vositasi tarzida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. Har ikki holatda ham vijdon ko'zga ko'rinmaydigan boshqaruvchi muruvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu - botiniy ko'rinish; zohiriy ko'rinish esa shar'iy hukmlar va huquqiy qonunlarda o'z aksini topadi. Biz komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko'p uchratamiz. Diniy ta'limotlarda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir, Xujjatul Islom Imom Abu Xamid G'azzoliy «Kimyoi saodat» asarida yozadilar: «Inson farishta va xayvon orasidagi maxluqdir. Xayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat, chunki insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud»⁴. Shu tariqa, komil insonning o'ziga hos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu – armoni deb qaralgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega. Ammo masala qanday qo'yilishidan qat'iy nazar, komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy – axloqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Axloq va huquq. Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero, aslida ham shunday. Ma'naviy kamolot yuksaklikka, ilg'or rivojlanishga intilishdir, jamiyat taraqqiyotiga, tenglik, teng huquqlilik, ozodlik, adolat, inson qadr – qimmat, haq – huquqini himoya qilishga intilishdir. Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, “Erkin fuqaro va ozod shaxs o'z haq-huquqini

⁴ Komilov N. «Komil inson xaqida to'rt risola» - T., O'zbekiston 1997, 172 b.

taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin. Shunday ekan, fuqaro o'z haqu-huquqini tanimasdan, faollashmasdan, siyosiy ongi oshmasdan, chinakamiga vatanparvar, fidoyi bo'lmasdan o'z vazifalarini ado eta oladilarmi? Shubhasiz, ado eta olmaydi"⁵.

Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotdan yashashdan ma'no izlaydi va bu narsa uning hayotining mazmunini tashkil etadi. Inson hayotda yashar ekan, u doimo komillikka qarab intiladi. Komil inson bo'lib etishish uchun uni ahloqiy, estetik va huquqiy tarbiyaning ahamiyati katta. Huquqiy tarbiya doirasiga tortilgan har bir shaxsning umumiy madaniyati, ya'ni uning siyosiy, ahloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy saloxiyatlarini inobatga olingan holda olib borilganda, mazkur faoliyat ancha samarali bo'ladi. Huquqni bilish va u haqda tasavvurlar, odatda kishiga huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida qandaydir xodisani huquqiy jihatdan to'g'ri baholashida va uning ehtimol bo'lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam berib, birgalikda faoliyat ko'rsatadi. Insonning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. yu.f.d. prof. A. Saidovning fikricha: "Voyaga etmaganlar o'zlari kuzatib boradigan huquqiy faktlarga nafaqat ularning qo'llanish amaliyoti nuqtai nazaridan baxo berishadi. Agar bunday amaliyot huquqda yozib qo'yilganiga nisbatan farq qiladigan bo'lsa, unda bu yoshlarda huquqiy ko'rsatmalarning shunchaki rasmiy narsa ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarni, "ha, qonun - boshqayu, hayot butunlay boshqa" degan fikrni hosil qilish mumkin"⁶.

Har bir davrning extiyojlari ham, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti ham ilmiy tafakkur salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Ma'lum muammoni xal etish imkoniyatlarini inson o'z aql zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Olim Abdulla SHer fikricha "Ba'zilar bizga, fan-mutlaq ob'ektiv hodisa, u mohiyatan holis, shunga ko'ra, uni ahloqqa bu qadar bo'ysundirish nojoiz, deb

⁵ Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" -T., O'zbekiston 2000, 232 b.

⁶ Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. - T., 2008. 198 b.

e'tiroz bildirishlari ham mumkin. Biroq, fanni odamlar, turli hissiyot, ehtirolarga moyil, turli ahloqiy fazilatlar, hatto illatlarga ega bo'lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e'tirozlarning o'zi nojoiz ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Zero har bir olimning ma'naviy-axloqiy holati, uning o'z kashfiyotida qay darjadadir aks etmasligi mumkin emas. Xullas, fan ham bevosita, ham bilvosita ahloq bilan bog'liq va aynan shu bog'liqlik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi." deb aniq javob beradi. Demak bilim, ilm, iste'dod, tajriba asosida shakllangan ma'naviyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi. Insonning mehnati jarayonida erishgan kasbi, malakasi, inson miyasida chuqur o'rin olgan tushunchalari amaliy imkoniyatlarga asos bo'ladigan ma'naviyatdir. Axloq va siyosat Axloqning siyosat bilan aloqasi ham nihoyatda qadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XVIII asrda Bobilon podshosi Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmui huquqiy hujjat bo'lsa-da, uning asosida axloqiy fazilat-adolatni barqaror etish yotadi. Zero Xammurapi bu qonunlarni mamlakatda haqiqat qilish, adolat o'rnatish, etim-esirlar va bevabechoralarga himmat, rahm-shafqat ko'rsatish maqsadida joriy etganini ta'kidlaydi. Manaviyat nuqtai nazaridan insonlar o'rtasidagi har qanday munosabat siyosat sohasiga oiddir. Haqiqatan ham, er – xotin o'rtasidagi munosabat, ota – ona va farzadlar o'rtasidagi munosabat, qo'ni – qo'shni, qarindosh urug', quda - anda bilan munosabat, hamkasblar bilan hattoki, begonalar bilan bo'lgan munosabat bularning barchasi ham siyosatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNALI* 3 (18) (2022).
2. Shavkat o'g'li, NX (2022). TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDI. *Gospodarka va Innovatsije.* , 22 , 229-231.

3. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(2), 48-51.
4. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
5. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
6. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
7. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРФЕТ-МАКОН ИМКОНІЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚІЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
8. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРФЕТ-МАКОН ИМКОНІЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚІЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
10. Shavkat o'g'li, N. X. (2022). YOSHLARDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI. *FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNALI*, (3 (18)).

11. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDID". *Gospodarka va Innovacje*. 22 (2022): 229-231.
12. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
13. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
14. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.
15. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
16. Shavkat o'g'li, N. X. (2023). ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 1(3), 4-9.
17. Shavkat o'g'li, N. X. (2023). AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1285-1287.
18. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).
19. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.

20. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti* 3 (2023): 67-67.
21. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.